

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

<b>T.Egamberdiyeva</b> Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	7
<b>R.Safarova, M.Abdullayev</b> Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari .....	11
<b>J.Obidov</b> Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati .....	16
<b>F.Madraximova</b> Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	21
<b>X.Tojiboyeva</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	26
IQTISODIYOT	
<b>M.Yuldasheva, A.Kolkanatov</b> Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing .....	29
<b>S.Ismoilova</b> Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi .....	34
FALSAFA, SIYOSAT	
<b>A.Yuldashov</b> Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни .....	39
<b>D.Raxmatova</b> Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida) .....	47
TARIX	
<b>B.Matboboyev, A.Aloxunov</b> Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari .....	53
<b>S.To'raxo'jayev</b> Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan .....	58
<b>R.Ahmedov</b> Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) .....	63
<b>Sh.Jumayev</b> Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun .....	70
<b>I.Xo'jaxonov</b> Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi .....	74
<b>A.Sarsenbayev, N.Turambetov</b> Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) .....	78
<b>R.Akbarov</b> Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi .....	85
<b>R.Murodaliyev</b> So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida .....	92
<b>N.Turambetov</b> Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim .....	98
<b>X.Ergasheva</b> 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi .....	103
<b>Sh.Xonimov</b> Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri .....	109

## SO'NGAK MOZOR-QO'RG'ONINING DAVRLASHTIRILISHI HAQIDA

## О ПЕРИОДИЗАЦИИ СУНГАКСКОГО МОГИЛЬНИКА

## ABOUT THE PERIODIZATION OF THE SUNGAK BURIAL GROUND

Murodaliyev Raxmonali Xaydarali o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Murodaliyev Raxmonali Xaydarali o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi milliy arxeologiya markazi kichik ilmiy xodimi.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Toshkent viloyati hududida joylashgan ko'chmanchi chorvadorlarga taalluqli So'ngak mozor-qo'rg'onida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va uni davrlashtirilishi masalalari bayon qilingan. Ushbu arxeologik yodgorlik Qovunchi madaniyatining III bosqichiga to'g'ri keladi. Ta'kidlash kerakki, bu paytda Chotqol daryosi havzasi orqali Talas vodiysi va Yettisuv hududlari bilan madaniy aloqalar shakllanib, u joylardan vohaning shimoli-sharqiy qismlariga yangi etnik guruhlar ham kirib kelgan. Natijada Chorvoq hududida VI-VIII asrlardan qo'nar-ko'char jamoalarning o'troqlashuv jarayoni tezlashgan. Keyingi paytlarda, mutaxassis arxeologlar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan Chorvoq hududini muallif tomonidan arxeologik jihatdan qayta o'rganish ayrim yangi fikr-mulohazalarni ilgari surilishiga sabab bo'lgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассмотрены вопросы археологических раскопок и периодизация могильника Сунгак, который принадлежит кочевым скотоводам Ташкентской области. Этот археологический памятник относится к III этапу Каунчинской культуры. Надо отметить, в это время формировались культурные связи с Таласской долиной и Семиречье через бассейн реки Чаткал, откуда в северо-восточные части оазиса проникали новые этнические группы. В результате процесс расселения кочевых общин в Чарвакском регионе ускорился с VI-VIII вв. В последнее время проведенное автором археологическое рассмотрение Чарвакского микрооазиса, недостаточно изученного специалистами-археологами, привело к развитию некоторых новых идей.*

**Abstract**

*This article discusses the issues of archaeological excavations and periodization of the Sungak burial ground, which belongs to the nomadic pastoralists of the Tashkent region. This archaeological monument belongs to the III stage of the Kaunchi culture. It should be noted that at that time cultural ties were formed with the Talas Valley and Semirechye through the Chatkal River basin, from where new ethnic groups penetrated into the northeastern parts of the oasis. As a result, the process of settlement of nomadic communities in the Charvak region accelerated from the 6th-8th centuries. Recently, the author's archaeological new research of the Charvak microoasis, which has not been sufficiently studied by archaeologists, has led to the development of some new ideas.*

**Kalit so'zlar:** Choch vohasi, So'ngak mozor-qo'rg'oni, ko'chmanchi madaniyat, arxeologik tadqiqot, qo'nar-ko'char, katakombas.

**Ключевые слова:** Чачский оазис, Сунгакский могильник, кочевая культура, археологические исследования, полу-кочевник, катакомбы.

**Key words:** Chach oasis, Sungak burial ground, nomadic culture, archaeological research, semi-nomad, catacombs.


**KIRISH**

Choch vohasining qadimgi aholisini Chirchiq-Ohangaron vodiylarining o'rta va quyi qismlarida istiqomat qiluvchi o'troq ziroatkor xo'jalik egalari hamda tekislik va tog'li tegralarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va qo'nar-ko'char jamoalar tashkil qilgan. Ularning turmush tarzi, mehnat faoliyati bir-biriga yaqin bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar orqali yanada mustahkamlangan. Bu munosabatlar madaniy aloqalarda ham o'z ifodasini topgan. Vohaning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi ko'chmanchi va o'troq xalqlar simbiozini yuqori nuqtasi bo'lgan. Shu bilan

## TARIX

birga, Chirchiq-Ohangaron vodiysining ko'chmanchi chorvador qatlami tog'li tegralarda o'z xo'jaligini kengaytirib borgan.

Arxeologik jihatdan tadqiq etilayotgan So'ngak mozor-qo'rg'oni Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hududida bo'lib, Chotqol daryosining chap qirg'og'ida, dengiz sathidan 900 m balandlikda joylashgan. Bugungi kunda Chorvoq suv omborining kengayishi tufayli mozor-qo'rg'on buzilib, qo'rg'onlarning ustki qismi deyarli saqlanmagan. Uning saqlangan maydoni taxminan 1 gektar atrofida. Shimoli-sharqdan janubi-g'arbga 100-150 m masofaga cho'zilgan (1-rasm).



**1-rasm. So'ngak mozor-qo'rg'onining topografik va joylashuv xaritasi**

Topilmajoyda 2019-yilda olib borilgan qidiruv ishlari davomida sopol buyumlar, temir pichoqlar, temir ot anjomlari – suvluq, qantarma (psaliy), kamar to'qalari va uzangi kabilar aniqlangan [15, b. 288; 14, b. 35]. Ular asosida o'sha yilning dekabr oyida ikkita buzilgan qabr ochib o'rganilgan.

2021-yilgi qazishmalar natijasida yana o'nta qabr ochilib, So'ngak mozor-qo'rg'onidagi ko'mish udumi borasida to'laqonli ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar davomida ko'mish udumining o'ziga xosligini kuzatilib, tog' yon bag'ri bo'ylab shimol-janub yo'nalishida qo'yilgan qabrlar qator to'ldirilgach, pastga yoki tepaga yangi qator tashkil etish orqali qabriston to'ldirib borilgan. Dafn etilgan mayitlarning asosiy qismi erkak jinsida ekanligi aniqlandi.


#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'tgan asrning 60-70-yillarida Yu.F. Buryakov rahbarligida olib borilgan Chorvoq arxeologik ekspeditsiyasi va Toshkent viloyati arxeologik yodgorliklarini ro'yxatga olish ishlari natijasida "Qadimgi Chorvoq" va "Toshkent viloyatining arxeologik yodgorliklari" nomli monografiyalar chop ettirilgan bo'lib, ularda antik va ilk o'rta asrlarga taaluqli ko'chmanchi chorvadorlar mozor-qo'rg'onlari ham tadqiq etilgan. Shuningdek, katakomba qabrlarning Toshkent viloyati uchun xosligi ta'kidlangan. Janubiy Qozog'iston va Talas vodiysi hududidagi yodgorliklar bilan solishtirgan holda aytish mumkinki, so'nggi yillarda Ye. Smagulov, A. Podushkin kabi qozog'istonlik olimlarning arxeologik tadqiqotlari natijasida ko'plab yangi materiallar to'plangan. Tadqiqotlarimiz davomida Ye. Smagulov tomonidan Choon-Kapka I mozor-qo'rg'oni katakomba qabrlari So'ngak mozor-qo'rg'oni qabrlari bilan o'xshashligi qayd etildi. L. Levinaning "Milodiy I ming yillikda o'rta va quyi Sirdaryo havzasi sopollari" monografiyasidagi keltirilgan Qovunchi madaniyatining davrlashtirilishiga qo'shilgan holda So'ngak mozor-qo'rg'oni qabrlari materiallari Qovunchi III davri bilan sanalandi.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, retrospektiv metodlar asosida yoritilgan. Unda, So'ngak mozor-qo'rg'onining qabrlari va ularning topilmalari asosida asosida ilk o'rta asrlarda ko'chmanchi xalqlarning Choch vohasi etno-siyosiy masalalaridagi faol ishtiroki va yodgorlikning davrlashtirilishi masalasi tadqiq etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mozor-qo'rg'onidagi dafn inshootlari katakomba qabrlardan iborat bo'lib, dromos horizontal (yoki bir oz sharqqa, katakombaga qarab og'gan) tubli va devorlari yuqoriga qarab kengaygan bo'lgan (2-rasm). Dromosning uzunligi aniq emas. Kenko'l madaniyatining shu kabi tog' yon bag'ri qiyaliklari hududida joylashgan mozor-qo'rg'onlari (Choon-Kapka I, Kenko'l va hk.) dromoslarining uzunligi odatda 3-4 m, ba'zi hollarda-7-8 m gacha, kengligi esa 0,4 m dan 0,9 m gacha boradi. Uning pastki qismidagi xandaqning oxirida dromos o'qi bo'ylab uzun o'qi bo'lgan dafn kamerasi – katakomba o'yilgan [12,106]. Yodgorlik qabrlarining dromoslari ham shunga o'xshash bo'lib, kamera o'lchamlarining mayit jussasiga qarab o'zgarishi kuzatiladi. Kamera kirishlarining taxminiy o'lchamlari: balandligi - 0,5 - 0,6 m; kengligi - 0,4 - 0,6 m. Uning pol sathi odatda dromos polidan bir oz pastda va kiraverishda bo'yiga 5-10 sm bo'lgan zina mavjud. Kameralar odatda oval shaklida yoki aylana burchakli to'rtburchak rejaga ega. O'lchamlari: 1.8-2.1x1.0-1.2 m. Ehtimol, kameraning shifti ham uning rejasidan kelib chiqqan holda, shu tarzda ishlangan bo'lishi mumkin.



2-rasm. So'ngak mozor-qo'rg'onidagi katakomba qabrning tarhi va kesmasi

Dafn inshootlarining yo'nalishi hududning topografik xususiyatlariga xos. Qabrston joylashgan qiyalik g'arb tomonga qaragan. Albatta, dromoslar ham g'arbdan sharqqa yo'naltirilgan [17, b. 116]. Dafn kamerasi dromos yo'nalishiga perpendikulyar, ya'ni shimol-janub yo'nalishida. Ne 4,5 qabrlarning dromoslari katakomba markaziga emas, shimoli-g'arbroqda, ya'ni mayitlar bosh qismiga yaqin joylashgan. Dafn etilganlar boshlari asosan shimolga (shimoli-sharq, shimoli-g'arb), uchta holatda janubga yo'naltirilgan. Ikkita qabrda esa sharqqa yo'naltirilgan. Dafn inshootlari yonbag'ir yo'nalishidan kelib chiqqan holda bo'lsa-da, bosh yo'nalishlarining turli-tumanligi xronologik yoki etnik masalalarga bog'liqlikni ishorasi bo'lishi mumkin. Dafn inshootlarining yo'nalishi hududning topografik xususiyatlariga xosligi holati esa Kenko'l madaniyati uchun xarakterlidir [11]. Shuni ham qayd etish kerakki, era boshlariga oid Shimoliy Kavkazdagi katakomba qabrlarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi [1,119]. Marhumni xonaga joylashtirgandan so'ng, kirish joyi turli hajmdagi toshlar bilan yopilgan va dromos, aftidan, ilgari qazib olingan tuproq bilan qayta ko'milgan. Qazishma hududidagi tuproq namligining yuqoriligi esa dromos kontur chiziqlarini topishga imkon bermadi. Shubhasiz, qadimiy yuzaning qiya holati qabr qo'rg'onlarining tez yo'qolishiga sabab bo'lgan. Biroq, qabrston faoliyat olib borgan vaqtda, dafn inshootlarining tashqi belgilari mavjud bo'lgan bo'lishi kerak [12, c. 107] (1-jadval).

**Qabrlardagi "tortiq" buyumlar.** Sopol buyumlar. Qabrston sopol majmuasi 12 ta qabrdan 5 donasi aniqlandi. Qabrston buzilishi natijasida tuproq yuzasiga chiqib qolgan 3 dona butun idishni qo'shganda 8 dona sopol buyumlar mavjud. Yodgorlik sopol idishlarini ikkita tipga bo'lish mumkin: 1) Ko'za; 2) Yog'log'i. Aniqlangan 5 tasi ko'zaning 3 tasi bir dastali, 2 tasi dastasiz. Yog'log'ilar 3 dona bo'lib, 2 tasi och qizil loydan yasalgan. Bittasi esa kulrang loydan ishlangan. Ularning barchasi qo'lda yasalgan bo'lib, ko'zalar va 1 ta yog'log'i loyiga shamot qo'shilgan.

## TARIX

Ko'zalar va S19-1 qabrdan chiqqan yog'log'i qo'pol qilib yasalgan. Buyumlarda hech qanday bezak va belgilar uchramaydi. S19-1 qabrdan aniqlangan ko'za va yog'log'i dastalarining ustki qismida pindik chiqarib ishlangan. Ko'za og'zida suyuqlikni quyish uchun uchburchaksimon tumshuq hosil qilingan. S21-5 qabridan aniqlangan ko'zada jo'mrak mavjud.

Demak, tadqiq etilgan sopol buyumlar Qovunchi II davri sopolari o'xshab ketadi. Lekin, yasaliş uslubining o'ta dag'alligi va dastasining joylashuvidagi farqlar, uni keyinroq ishlangan, deyishga imkon beradi. Umuman olganda, yodgorlik sopol majmuasi juda kambag'al bo'lib, faqat ikki tipdagi sopol idishlarga bo'linadi. Sopollarni davrlashtirish masalasining bahsliligi shundaki, L.Levina va Yu.Buryakov tomonidan Qovunchi madaniyati majmualari uchun taklif qilingan davrlashtirishning farqidadir. L.Levinaga ko'ra, Qovunchi madaniyatining II va III bosqichlari IV-V, VI-VIII asrlar bilan, Yu.Buryakov bo'yicha esa II-IV, V-VI asrlar bilan davrlashtirilgan. L.Levina sopol majmuasi asosida o'z xulosalarini ilgari surgan [5,184] bo'lsa, Yu.Buryakov Toshkent vohasi arxeologik yodgorliklarini umumiy tahliliga ko'ra, madaniyat faqat sopol majmuasiga tayanib paydo bo'lmaganligi prinsipiga asoslanib, o'z davrlashtirishini taklif qilgan. VI asr ikkinchi yarmi - VIII asrlar arxeologik majmuasi esa Turk xoqonligi davri yodgorliklari sifatida davrlashtirilib, Toshkent vohasi "urbanistik" rivojlangan hudud sifatida atalib, mustaqil Mingo'rik bosqichi sifatida ajratilgan [2,100].

Suyakdan ishlangan buyumlar. S21-4 va S21-9 qabrlaridan aniqlangan 5-6 sm uzunlikdagi suyakdan ishlangan ichi g'ovak naysimon buyumlarni marhum hayotligi davomida foydalangan ignadon yoki mesh og'ziga mahkamlangan va suyuqlik ichishga qulay naycha sifatida talqin qilish mumkin [16,108-111]. Bu kabi suyakdan ishlangan buyumlar Toshkent hududidagi Qovunchi madaniyatiga oid yodgorliklarda va Farg'ona vodiysidagi eramiz boshlariga oid mozor-qo'rg'onlarda ochib o'rganilgan. Tadqiqotchilar bu kabi suyak buyumlarni kichik pichoqchalar uchun dasta yoki ignadon bo'lganiga urg'u berishgan [6,25-27]. Shuni ham aytish joizki, suyakdan ishlangan bunday buyumlarning aniq xronologiyasi keltirilmagan. Bundan tashqari S21-6 qabrdan ikki dona qo'ying oshiq suyaklari aniqlangan.

**Pardoz buyumlari.** Topilmalardan yana biri surmatosh tayoqchasi bo'lib, uzunligi 7 sm, konussimon tayoqcha bo'lib, orqa qismida osib yurish uchun teshik hosil qilingan. Bunday tayoqchalardan ayollar pardoz anjomi sifatida foydalanilgan. Ular juda uzoq vaqt davomida foydalanib kelingan. Eng qadimgilari Farg'ona vodiysining ilk temir davriga oid mozor-qo'rg'onlaridan aniqlangan [13,78-90]. Eramizning boshlariga taalluqli Farg'ona vodiysining ko'plab yodgorliklarida [6,129-131], Qovunchi madaniyatiga oid Toshkent vohasi mozor-qo'rg'on va makonlarida [10,75; 5; 5, c. 113], shuningdek, Volgabo'yidan Sibirgacha [9,80; 6, tabl. 12; 7,22-23, 26] bo'lgan hududlardan ham aniqlangan. B.A.Litvinskiy bu pardoz anjomi haqida mufassal to'xtalib, uning janubiy mintaqalardagi tarqalishi masalasini keng yoritib bergan [6, c. 133]. Bu esa uning uzoq vaqt davomida asosiy pardoz anjomi sifatida foydalanib kelinganini anglatadi. Shuningdek, ma'lum xronologik chegarani aniqlashda bu buyumga nisbatan yodgorlik umumiy majmuasini yordamchi qismi sifatida qarashni taqozo qiladi.

**Temir buyumlar.** Temir buyumlarga to'xtaladigan bo'lsak, yodgorlik hududi va o'rganilgan qablardan asosan pichoq, kamar to'qalari va ot anjomlari aniqlandi. Pichoqlar eramizning boshlari va ilk o'rta asrlar uchun xos. Yodgorlikda aniqlangan pichoqlarni ikkita tipga ajratildi: 1) katta pichoqlar; 2) pichoqchalar.

Katta pichoqlar bir tig'li, uzunligi 15-25 sm, eni 2 smgacha bo'lib, dastalari yog'ochdan yasalgan va yog'och g'ilofga solib ko'milgan. Kichiq pichoqlar esa 6-8 sm, eni esa 1 smgacha bo'lgan. Bu kabi pichoqlar Toshkent vohasi, Ustrushona, Janubiy Qozog'iston va Farg'ona vodiysidagi ko'plab mozor-qo'rg'onlarda aniqlangan.

Kamar to'qalari aylana shaklida, diametri 3-4 sm atrofida. Ular asosan eramiz boshlari va ilk o'rta asrlarda mahalliy aholi tomonidan keng foydalanilgan. Bunda, S21-1 qabrdan topilgan temir parchalari o'z paytida teridan ishlangan kamarga qadalgan. Bunday kamarlar amaliy san'at namunasi bo'lib, Turk xoqonligi davriga taalluqli va u qabr egasining jamoadagi nufuzi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday kamarlar Oltoy hududidagi yodgorliklardan aniqlangan hamda VII-VIII asrlar oralig'i bilan davrlashtirilgan [8, c. 42, 128-129]. Ot anjomlari – uzangi, suvluq va ayil to'qalari ham VI-VIII asrlarga to'g'ri keladi [15, s. 287-302; 14, b. 34-43].

## XULOSA

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, So'ngak mozor-qo'rg'oni L.M. Levinaning davrlashtirishiga muvofiq Qovunchi madaniyatining uchinchi bosqichiga taaluqli bo'lib, VI-VIII asrlar bilan davrlashtirish mumkin. YU.F. Buryakov tomonidan taklif qilingan xronologiyaga ko'ra Qovunchi III er. V-VI asrlari bilan belgilangan. VI-VIII asrlar esa alohida Mingo'rik davri sifatida qayd etilgan. Lekin, YU.F. Buryakov taklif etgan davrlashtirish asosan vohaning shahar madaniyati uchun xos bo'lib, periferiya (chekka) hududlarda sopol yasalishidagi ayrim an'analar uzoq vaqt saqlanib qolgan. Shu bilan birga, Chotqol daryosi havzasi orqali Talas vodiysi va Yettisuv hududlari bilan madaniy aloqalar shakllanib, u joylardan vohaning shimoli-sharqiy qismlariga yangi etnik guruhlar ham kirib kelgan. Natijada Chorvoq hududida VI-VIII asrlardan qo'nar-ko'char jamoalarning o'troqlashuv jarayoni tezlashgan.

1-jadval

Qabr №	Qo'rg'on hajmi		Qabr tipi	Qabr o'lchamlari			Mayit				Qo' y suyagi	Sopol idish		Temir buyum	Suyakdan ishlangan buyum
	Diametr	Balandlik		Oriyentatsiya	O' Icham	Kamera bo' yi	Soni	Oriyentatsiya	Jinsi	Yoshi		Ko' za	Yog' log' i		
S21-1	-	-	?	Sh-J	200X90-100 cm	70 cm?	1	Sh-ShG'	E	25-35	+	-	-	Kamar parchalari, pichoq	-
S21-2	-	-	?	ShSh-JG'	200X100 cm	?	1	ShSh	E?	45-55	-	-	-	-	-
S21-3	-	-	Katakomba?	Sh-J	148X90 cm	?	1	J	?	4-5	-	-	-	-	-
S21-4	-	-	Katakomba	Sh-J	195X90-120- 95 cm	80 cm	1	Sh	E	18-22	-	Bir dastali ko'za	-	To'qa	Ignadon?
S21-5	-	-	Katakomba	ShSh-JG'	215X70-110- 70	80 cm	1	ShSh	E	50+	-	Bir dastali ko'za	Och qizil rangli	-	-
S21-6	-	-	?	Sh-J	114X74 cm	?	1	Sh	E	50+	+	-	-	Pichoqcha va temir tayoqcha	-
S21-7	-	-	Katakomba?	Sh-J	167X70 cm	?	1	J	E	20-25	-	-	-	-	-
S21-8	-	-	?	Sh-J	?	?	1	J	E	50+	-	-	-	To'qa	-
S21-9	-	-	?	ShSh-JG'	?	?	1	ShSh	E	50+	-	-	-	-	Ignadon?
S21-10	-	-	Katakomba	Sh-J	95X45 cm	60 cm?	1	Sh	?	1,5-2	-	-	-	-	-
S19-1	-	-	?	Sh-J	180X90 cm	?	1	J	E	30-35 (?)	-	Bir dastali ko'za	Dastasida pindikcha bor, kulrang	-	-
S19-2	-	-	?	Sh-J	180X90 cm	?	1	Sh	E	30-35 (?)	-	-	-	-	-

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

## Kitoblar

1. Abramova M.P. Podkumskiy mogilnik. – Moskva. 1987. – S. 119.  
(Abramova M.P. Podkumsky burial ground. Moscow. 1987. P. 119)
2. Buryakov Yu. F. Genesis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa. – Tashkent. 1982. – S. 100.  
(Buryakov Yu. F. Genesis and stages of development of the urban culture of the Tashkent oasis. Tashkent. 1982. P. 100)
3. Grigor'ev G. V. Kaunchi-Tepa (Raskopki 1935 g.). – Tashkent. 1940.  
(Grigoriev G.V. Kaunchi-Tepa (Excavations in 1935). Tashkent. 1940).
4. Gryaznov M.P. Istoriya drevnix plemen Verxney Obi po raskopkam bliz s. Bolshaya rechka / MIA, 1956. № 48, tabl. XLI, 12.  
(Gryaznov M.P. The history of the ancient tribes of the Upper Ob according to excavations near the village "Bolshaya rechka" // MIA, 1956. No. 48, tab. XLI, 12).
5. Levina L. M. Keramika nijney i sredney techenii Syrdari v 1 tis. n.e. – Moskva. 1971.



## TARIX

(Levina L. M. Ceramics of the lower and middle reaches of the Syrdari in 1000 AD. Moscow, 1971)

6. Litvinskiy B.A. Orudiya truda i utvar iz mogilnikov Zapadnoy Fergani. – Moskva. 1978.

(Litvinsky B. A. Tools and utensils from the burials of Western Fergana. Moscow, 1978)

7. Rudenko S.I. Sibirskaya kolleksiya Petra I. SAI, DZ-9. – Moskva, – Leningrad. 1962. – S. 22-23,36, tabl. II. 1, 3.

(Rudenko S.I. Siberian collection Petr I. SAI, DZ-9. Moscow, Leningrad. 1962. P. 22-23,36, tab. II. 1, 3.)

8. Sibirskiy drevnosti / Arxeologiya SSSR. – Moskva, 1988. Tom 18. – S. 42, 128-129. Ris. 23.15 (Siberian antiquities. Archeology of the USSR. Moscow, 1988. Volume 18, P. 42, 128-129. Pic. 23.15)

9. Smirnov A.P. Ocherki drevney i srednevekovoy istorii narodov Srednego Povoljya i Prikamya / MIA, № 28, 1952, – S. 80, tabl. XVII. 11.

(Smirnov A.P. Essays on the ancient and medieval history of the peoples of the Middle Volga and Kama. MIA, No. 28, 1952, - S. 80, tab. XVII. 11).

**Jurnallar**

10. Agzamxodjayev T. Tuyabuguzskiy nausi // IMKU, Vip. 3, – Tashkent. 1962. – S. 75 (Agzamkhodzhaev T. Naus's of Tuyabuguz // HMCU, Issue 3, Tashkent. 1962)

11. Kojomberdieva E. I. Ob oriyentirovke pogrebalnykh sooruzheniy kenkolskoy kulturi // Vestnik Moskovskogo universiteta, Ser. 8. Istoriya, № 1. – Moskva. 1995.

(Kozhombardieva E.I. On the orientation of the burial structures of the Kenkol culture // Bulletin of Moscow University, Ser. 8. History, No 1. Moscow, 1995)

12. Smagulov YE. Katakombniy mogilnik Choon-Kapka I v doline r. Talas // IMKU, № 34. – Tashkent. 2004.

(Smagulov E. Choon-Kapka I catacomb burial place in the valley of the river Talas // HMCU, No 34. Tashkent. 2004)

**Ikki va undan ortiq mualliflar**

13. Gorbunova N.G., Gamburg B.Z. Ak-Tamskiy mogilnik // KSIIMK. 1957. Vip. 69. – S. 78-90 (Gorbunova N.G., Hamburg V.Z. Ak-Tam burial ground // KSIIMK, 1957. Issue 69. Pp. 78-90).

14. Murodaliyev R., Mirsoatova S. So'ngak mozor-qo'rg'oni topilmasi va uzangining tarixdagi ahamiyati // O'tmishga nazar, 4-jild. № 9. 2021. – B. 34-43.

(Murodaliyev R., Mirsoatova S. The find from Sungak burials and significance of the stirrups in history // Look to the past, vol. № 9. 2021. Pp. 34-43)

15. Maksud F., Muradaliyev R. Göktürkler ve üzeninin yayilmasi üzerine // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi. Cilt/Volume 2, Sayı/Issue 4, Temmuz /July 2020, – SS. 287-302.

(Maksudov F., Muradaliyev R. On the Kükturks and the spread of the stirrup // Journal of General Turkish History Studies. Volume 2, Issue 4, July 2020. Pp. 287-302)

**Ilmiy anjuman to'plamlari**

16. Murodaliyev R. Suyakdan ishlangan bir buyum xususida // O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi (Tarix, arxeologiya, turizm, etnografiya va ijtimoiy sohalarga oid ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar to'plami), Tom 1. – Termiz. 2022. – B. 108-111.

(Murodaliyev R. On a piece of bone // History and archeology of Central Asia (Collection of scientific, popular scientific articles on history, archeology, tourism, ethnography and social spheres), Volume 1. Termez, 2022. Pp. 108-111)

17. Murodaliyev R.H. O'rta Osiyoning antik davr katakomb qabrlarining o'rganilishi // O'zbekiston arxeologiyasining dolzarb masalalari (Professor M.D. Djuraqulovning arxeologiya maktabi) mavzusidagi konferensiya materiallari. – Samarqand. 2022. – B. 114-119.

(Murodaliyev R.H. Study of ancient catacomb tombs in Central Asia // Proceedings of the conference on current issues of archeology of Uzbekistan (School of Archeology of Professor MD Djurakulov). Samarkand. 2022. Pp. 114-119).

(Taqrizchi: M.H.Isomiddinov – tarix fanlari doktori, professor)